



ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 12th October 2022

KEY WORDS

«Yo'l xaritasi», maktabgacha ta'lim, "Ketrining", modernizatsiya

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUV

Komolova Iroda Xamidullaevna

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali maktabgacha ta'lim va pedagogika kafedrasini o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7188491>

ABSTRACT

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy yondashuv va amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimini yaratish ko'zda tutildi.

Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

STEM(STEAM) ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchalik vo

hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat – muammoni hal qilish (problem-solving skills) qobiliyati shakllanadi.

«STEM fikrlash» bolalikdan boshlanadi. Bola yurishni bilmagan paytida ham jarayonlarning bog'liqligi, ketma-ketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag'batlantirilishi lozim. Sifatli kitob bolani STEM tizimiga olib kirishda kuchli tramplin bo'la oladi.

Bu yerda muhim jihat STEM tamoyillariga asoslangan kitobni ensiklopediya kitoblari bilan adashtirmaslik lozim.

Maktabgacha ta'lim. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash



borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari (Davlat ta'lim standartlari) va «Ilk qadam» (Takomillashgan ilk qadam) davlat o'quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini

rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, ko'ngil muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerak.

Gurux xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak.

Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak.

TRIZ pedagogikasi nima? (Dialog)

Bu nima?

— Ijodiy yondoshishga asoslangan o'qitish uslublari to'plami, shuning uchun TRIZda hech qanday baho va yagona to'g'ri javob yo'q.

Ushbu yondashuv nima beradi?

— Moslashuvchan fikrlash va tasavvurni rivojlantiradi, murakkab muammolarni nafis va samarali yechishga o'rgatadi.

Zamonaviy TRIZ pedagogikasining tamoyillari qanday?

— har qanday o'qitish yoki boshqarish harakatlarida o'quvchiga tanlash huquqini taqdim etadi;

— g'oyalarning o'z-o'zini yaratishini rag'batlantiradigan vazifalardan foydalantiradi;

— o'quvchilarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarni amalda mashq qilish imkoniyatini berish;



— teskari aloqa orqali o'quv jarayonini boshqarish;

— samaradorlikni oshirish uchun talabalarning o'zlari yaratgan imkoniyatlar, bilimlar, qiziqishlardan maksimal darajada foydalaning;

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi farmon va qarorlari, shuningdek,

"Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi.

Barcha sohalar qatori tizimda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi boshqa sohalar qatori Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida yil yakuni bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarning qamrovi 10

foizga oshishi, 2018 yilda esa maktabgacha ta'lim muassasalarini saqlash harajatlari joriy yilga nisbatan 32 foizga o'sishi kutilmoqda.

Kuni kecha Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, istiqboldagi vazifalar belgilab berildi.

Jumladan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi.

Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati uchun yetarli sharoit yaratilmaganligi bois, binolar qarovsiz holga kelib, bo'shab yotganligi, ulardan samarali foydalanilmayotganligi tanqid qilinib, 2018 yilning birinchi yarmida amalga oshirilishi lozim bo'lgan yettita yo'nalishdagi strategik vazifalar belgilab berildi.

Ular doirasida 2018 yil davlat budjetidan 427 bog'chada qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish uchun 771 milliard so'm mablag' ajratish, jumladan, 14 tasini yangidan qurish, 256 tasini rekonstruksiya qilish va 157 tasini kapital ta'mirlash rejalashtirilayotganligi, davlat-xususiy sherikchilik asosida yangi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, 2018 yil 1 yanvardan



boshlab, 5 yil davomida xususiy bog'chalar tomonidan tabiiy gaz va elektr energiyasi uchun sarflanadigan mablag'ning yarmi davlat budjeti hisobidan qoplanishi, bog'chalarda bolalarni sog'lom ovqatlantirish va ularga berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlash maqsadida 2018 yildan boshlab har bir maktabgacha ta'lim muassasasiga 10-15 nafar fermerni sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib berish uchun birlashtirilishi, bolalar bog'chalariga tayyor sifatli issiq ovqat yetkazib beradigan davlat korxonasi tashkil etilib, "Ketrinq" xizmatini yo'lga qo'yish mexanizmining ishlab chiqilishi, maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti faoliyatining takomillashtirilishi, maktabgacha ta'lim uchun kadrlar tayyorlaydigan institutlarning qabul kvotalarini real ehtiyojdan kelib chiqib belgilash hamda maktabgacha ta'lim pedagoglariga qo'yiladigan talablarning qayta ko'rib chiqilishi tom ma'noda sohani dunyo standartlari darajasiga olib chiqilishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bozor munosabatlari sharoitida sifatni ta'minlovchi ta'lim tashkiloti sifatida namoyon bo'lishi ham o'rganilmagan. Shunday vaqtda o'ziga xos xususiyatlarini bilmasdan bunday sharoitda ta'lim sifatini takomillashtirish konsepsiyasini yaratish mumkin emas.

Maktabgacha ta'lim tizimini uning sifatiga muvofiq modernizatsiyalashning tahlili quyidagilar o'rtasidagi bir qator ziddiyatlarni namoyon qildi:

- maktabgacha ta'lim muassasalarining ijtimoiy belgilangan

maqsadlarga erishish usul va vositalarini tanlash doirasidagi bir talay huquq va vakolatlari hamda ularni amalga oshirishning ilmiy- asoslangan mexanizmi mavjud emasligi;

maktabgacha ta'lim muassasasida shaxs va jamiyatning sifatli ta'lim olishga ehtiyoji va kutayotgan natijasi, talablarini qondirish uchun sharoit yaratishga qo'yiladigan talablar hamda real amaliyotning haqiqiy holati;

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Hujjat malakali pedagog kadrlar yetishmovchiligi, davlat MTTlarining to'lib ketganligi, moddiy-texnik holatining nomuvofiqligi hamda davlat o'quv-metodik materiallari bilan past darajada ta'minlanganligi muammolarining hal etilishini nazarda tutadi.

Xususan, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bolalar miqdorini joriy 38,1 foizdan 80,8 foizgacha o'rttirish vazifasi qo'yilgan. Shu bilan birga, MTV tomonidan ta'lim muassasalari quvvatlari-ning kuchaytirilishi davom ettiriladi: 2021-yilga kelib o'rinlar miqdori

Konsepsiya bilan belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar respublika miqyosidan viloyat, tuman va shahar darajasigacha tushadi hamda ushbu natijalarga erishish uchun qay miqdorda mablag'larining zarurligi to'g'risidagi hisob-kitoblar bilan asoslanadi.

Demak, maktabgacha ta'limning ertangi porloq kelajagidan barchamiz umidvor va manfaatdormiz.



References:

1. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizom. - Toshkent 1995 y.
2. «Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi» - Toshkent 1993 y. Tuzuvchi mualliflar: L. Mo'minova, M. Ayupova, S. Karimova.
3. Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch-sinov dasturi. Toshkent - 1998 y.
4. Sh. Shodmonova, «Maktabgacha ta'lim pedagogikasi» Toshkent 2003
5. «Oila pedagogikasi» O. Hasanboyeva, Aloqachi nashryoti, 2007y
6. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» Toshkent, Ilm-ziyo, 2006y